

IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR UCHUN TIKUVCHILIKNI O'RGATISH

Muhammadiyev Obidjon

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan 1-sod
kasb hunar maktabi, Tikuvchilik yo'nalishi Maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv ta'lismi rivojlantirish va tikuvchilikni rivojlantirish keng yoritildi. O'zbekistonda inklyuziv ta'lismi rivojlantirish davlat, jamiyat va imkoniyati cheklangan bolalar hamda ularning ota-onalari manfaatlariga xizmat qiladi, deb hisoblayman. Maktab, kollej, litsey yoki oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni nafaqat bilim olish, balki muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish va natijada ijtimoiy hayot bilan tanishtirishdan iboratdir. Bu butun jamiyatning nogiron bolalar va kattalarga nisbatan ijobiy munosabatini o'zgartirishda muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Ushbu maqolada shu shunga doir ko'plab kerakli fikrlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lismi, davlat, o'quvchilar, imkoniyati cheklangan bolalar, autism, BMT*

Yaqinda Xalq ta'limi vazirligi «Nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi prezident qarori loyihasi va O'zbekistonda 2030 yilgacha inklyuziv (integratsiyalashgan) ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini muhokamaga qo'ydi.

Mazkur qaror loyihasi va konsepsiyaning muhokamaga qo'yilganini nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiy muhofazasi, ta'lim olishi va ularni jamiyatimizga qo'shish borasidagi salmoqli qadam, deb baholash mumkin. Shu bilan birga, qaror va konsepsiada qator tushunmovchiliklar mavjud bo'lib, taklif etilayotgan choralar inklyuziv (uyg'unlashgan) ta'lim tamoyillariga to'liq mos kelmasligi mumkin.

Qaror loyihasiga muvofiq, 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab hududlarda bittadan umumta'lim maktabida sinov tariqasida «jismoniy yoki psixik rivojlanishida turli nuqsoni hamda davolanishga va sog'lomlashtirishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun alohida tayanch korreksion sinf» ochilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, har bir sinovdagi umumta'lim maktabida shtat jadvalida bir nafar defektolog o'rni ajratiladi.

Ammo, qaror loyihasida foydalanilgan terminologiyadan aynan qaysi turdag'i nogironligi bo'lgan bolalar nazarda tutilgani noaniqligicha qolmoqda. Bolalarda turli xil nogironlik holatlaridan kelib chiqqan holda, turli xil tana funksiya buzilishlari bo'lishi mumkin, ya'ni jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (ko'rish va eshitish).

Mazkur nogironlik holatlaridan kelib chiqqan holda, bolalarning ehtiyojlari ham tubdan farq qiladi.

Misol uchun, jismoniy imkoniyati cheklangan bolaga umumiyl maktabda pandus o'rnatilishi va boshqa oqilona qulayliklar yaratish orqali maktab binosini moslashtirishning o'zi kifoya qilsa, ko'zi ojiz bola uchun bu maxsus Brayl yozuvidagi

darsliklar va moslamalar, kar va zaif eshituvchi bolalar uchun imo ishora tili xizmati va o'qishda qiyinchiligi tufayli alohida ehtiyojlarga ega bolalar uchun bu qo'shimcha tyutor (inglizcha tutor — «pedagog-murabbiy») xizmati demakdir.

Bir tasavvur qilib ko'raylik. Keyingi yil 1 sentyabrdan boshlab ma'lum bir hududning umumta'lim maktabida nogironligi bo'lgan bolalar uchun alohida bиринчи «N» sinfi tashkil qilindi. Autizmi bo'lgan bolaning otasi Farhod Ortiqbeyevning fikricha, bu «davlat ichidagi davlat bo'lib» inklyuziv ta'lim tamoyillariga zid keladi va bolalarni ularning nogironlik holati bo'yicha ajratish bo'lib qoladi.

BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasiga muvofiq, inklyuziv ta'lim (fransuzcha «inclusif» — «o'ziga qo'shgan» so'zidan) — nogironligi bo'lмаган bolalarning nogironligi bo'lgan bolalar bilan birgalikda o'qitilishi deb hisoblanadi.

Ko'pgina davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ommaviy maktabdagи maxsus sinflar bolalar jamoatchiligi tomonidan qabul qilinmaydi.

To'g'ri, ba'zi davlatlarda shunday tajribalar amalga oshirilgan bo'lib, bиринчи nogironligi bo'lgan bolalar uchun alohida sinflar tuzilib, keyin asta-sekin ular umumiylар sinflarga qo'shilgan. Bunday yondashuv bolalarning muloqot qilishlariga imkoniyat yaratishi mumkin, lekin ularning o'zaro muloqoti o'qish jarayonidan tashqarida cheklangan bo'lib qoladi.

Jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar umumiylар mактабда uyg'unlashgan sharoitda ta'lim olishlariga hech qanday to'siq bo'lishi mumkin emas, chunki ularning aqliy salohiyatlari cheklangan.

Ular duch keladigan asosiy to'siqlar – bu maktab binosining moslashtirilmagani hamda maktab rahbariyati, o'qituvchilar va nogironligi bo'lмаган o'quvchilarning ota-onalari tomonidan salbiy va kansituvchi munosabati.

Ko'pchilik jismoniy nogironligi bo'lgan bolalar umumiylар maktablarga qatnay olmagani tufayli uy sharoitida sifatsiz ta'lim olishga majbur bo'lmoqdalar. Muammo bu yerda bolaning jismoniy holatida emas, balki umumiylар maktablarda sharoitlar yaratilmaganida.

Davlat tomonidan ajratilgan 2 foiz kvota asosida I va II guruh nogironligi bo'lgan talabalar oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga qabul qilinganidan so'ng, bir qator to'siqlarga duch kelishdi. OTMlar o'quv binolarida sharoitlar bo'lмаган tufayli, alohida nogironligi bo'lgan talabalar uchun akademik guruhlар tashkil qilindi.

Bu muammoni hal etish uchun qaror loyihasida OTMlarning o'quv binolari va talabalar yotoqxonalarida nogironligi bo'lgan talabalar uchun shart-sharoitlar yaratilishi ko'zda tutilgan.

Ammo, OTMlarga yuklanayotgan majburiyat umumta'lim maktablariga taalluqli emasmi?

«O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonunga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy infratuzilma obektlariga

to'sqinliksiz kirishini, transportdan, aloqa va axborot vositalaridan to'sqinliksiz foydalanishi ta'minlanishi kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ijtimoiy infratuzilma obektlari ro'yxatiga kiradimi? Nega yaqinda Sirg'ali tumanida yangi qurilgan umumiy maktablarda nogironligi bo'lgan bolalar uchun shart-sharoitlar yaratilmadi? Bu qonun buzilishiga kirmaydimi?

Qaror loyihasida bir tomondan sinov tariqasida alohida sinflarni tashkil etish kiritilgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha rejalar kiritilgan. Turli xil nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari oldingi davrdan bizga meros bo'lib qolgan. Maxsus ta'limning kamchiliklari bor.

Birinchidan, ularning soni cheklangan bo'lib, barcha nogironligi bo'lgan bolalarni qamrab olish salohiyatiga ega emas. Ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi bolalar asosan shahar markazlarida joylashgan maktab-internatlariga borib, oila a'zolaridan yiroqda yotoqxonalarda yashab o'qishga majbur bo'lmoqdalar. O'quv jarayoni qanchalik sifatli yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da uylaridan uzoqda yashash yosh bolalarning ruhiy rivojlanishi va oiladagi olishi kerak bo'lgan tarbiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Qaror loyihasida maxsus maktab-internatlarni optimallashtirish va bosqichma-bosqich nogironligi bo'lgan bolalarni ommaviy maktablarga o'tkazish o'rniga, maxsus ta'limni yanada rivojlantirish choralari ko'zda tutilgan.

Ikkinchidan, cheklangan davlat budgetiga maktab-internatlarni doimiy moliyaviy ta'minlab turish, yangi maxsus maktablar va yotoqxonalarni qurish hamda maxsus maktablarining qo'shimcha xodimlariga ish haqi to'lash kabilalar xarajatlarning keskin oshishiga olib kelishi mumkin. Buning o'rniga, umumiy maktablarda nogironligi bo'lgan bolalar uchun shart-sharoitlar yaratib, ularni o'quv jarayoniga qo'shish davlat budgetini tejash va hozirda maxsus ta'limga yo'naltirilayotgan mablag'larni inklyuziv ta'limni rivojlantirishga imkoniyat yaratishi mumkin.

Misol uchun, ko'zi ojiz bola, agar Brayl yozuvidagi maxsus darsliklar va moslamalar bilan ta'minlansa, umumiy o'rta ta'lim maktabiga pedagogika yo'nalishi bo'yicha OTMni bitirgan ko'zi ojiz o'qituvchi ishga qabul qilinsa, maxsus maktab-internatiga ehtiyoj qolmaydi. Bu orqali ham ko'zi ojiz bola inklyuziv sharoitda ta'lim olish huquqiga ega bo'lib, ham ko'zi ojiz o'qituvchi munosib ish bilan ta'minlanadi.

Ko'pchilik ota-onalar ham o'zlarining bor e'tiborlarini va moliyaviy mablag'larini farzandlarini davolatish va sog'lomlashtirish, tibbiy rehabilitatsiya orqali «normal» holatga keltirishga sarflashadi. Ammo tiklab bo'ladigan holatlar bor va tiklab bo'lmaydigan holatlar bor. Natijada nogironligi bo'lgan bolalar boshqa bolalarga qaraganda o'quv jarayonidan ortda qolib ketishadi va sifatsiz uy ta'limi bilan kifoyalanib qolishadi.

Kiyim tikish jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat: I. Model, konstruksiya va andazalar tayyorlash; 2. Gazlamani tikishga tayyorlash va bichish (ya'ni tayyorlov -

bichish licha<tkasidagi ishlar); 3. Buyumni tikish va bezash. Kiyimlarni ko'plab ishlab chiqarish uchun buyumlarning modellarini yaratish va loyihalash bilan modalar uyi, texnika, tajriba laboratoriyalari, ayrim korxonalarda esa yuqori malakali rassom - modelerlar va konstruktorlari bo'lgan eksperimental sexlar modalar uyi rahbarligida shug'ullanadi. Buyumlarni konstruksiyalash ular konstruksiyasini yaratish jarayonidan iborat. Konstruksiya buyumning haqiqiy kattalikdagi chizmasi ho'lib, unda qirqimlar bo'yicha detallaming tutashish joylari va tikish llsullari ko'rsatiladi. Andazalar, texnik hujjatlar va modellaming namunalari tikuvchilik fabrikasiga keltiriladi. Har bir tikuvchilik korxomisida tikish jarayonida kiyim uchta a<()Siy uchastkadan; eksperimental sex, tayyorlov-bichish lichastkasi va tikuv sexidan o'tadi. Fabrika eksperirnentaJ sexi xodimlarining vazifalari: modalar uyidan modellar namunalarini, kiyim andazalarini va texnik hujjat1arini olish; andazalami tekshirish; ko'paytirish Vd tayyo~h; andazalami aralash joylashtirish uchun razmer va rostlami birlashtirish; andazalami eksprernal yo'l bilanjoylashtirish va gazlama sarli normasini aniqlash; trafaretlar tayyorlash; ishlab chiqarishda gaz1amalardan rug'ri foydalanishni nazorat qilishdan iborat. Tayyorlash sexida gazlamalar qabul qilinadi va saqlanadi, sifati tekshiriladi, gazlama to'plari uzunligi o'lchanadi va saralanadi, to'sharnala.rga gpzlarna tanlanadi, to'shamalaming ustki qavatlari bo'rланади. Bichish sexida gazlamalar to'shaladi, to'shama bo'laklarga qirqiladi, buyum detallarini qirqib olinadi, bichish sifati rekshirilib, bichilgan detallar to'plab qo'yiladi. Tikuvchilik sexida choklaydigan va maxsus mashinalar, shuningdek namlab - isitib ishlov beradigan uskunalar bilan jihozJangan texnologik potoldaJda kiyim tikiadi. Yirik korxonalarda pardozlash sexida namlab - isitib ishlash operasiyalari bajariladi, natijada tayyor ,kiyim tovar ko'rinishini oladi. Pardozlash sexidan kiyim tayyor maxsulotlar omboriga jo'natiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruva muammolari. Science and Education, 2(10), 636- 642.
2. AA, Mulaydinov Farkhod Muratovich. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI. АХБОРОТКОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯЛАРНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ЕЧИМЛАРИ ОНЛАЙН РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-ТЕХНИК АНЖУМАНИНИНГ МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ, 2 (6), 794
3. A Abdullaev. (2021). RAQAMLI IQTISODIYOT - KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning ...
4. A Akhrorjon, K Zumradkhan. (2022). THE IMPACT AND RESULTS OF MEMBERSHIP OF THE WTO ON THE EDUCATION SYSTEM. Educational Research in Universal Sciences 1 (5), 24-32